



## ENG OG`IR GUNOH

*Namangan viloyati Chortoq tuman MMTB ga qarashli 21-maktabning*

*Ona tili va adabiyot fani o `qituvchisi*

**Ergasheva Ra`no**

Qishlog`imiz uncha katta emas. Bahavo, sersuv, xullas, nima eksangiz unadigan, tuprog`i unumdor, go`zal qishloqlardan biri. Odamlarini aytmaysizmi? Bir-birlariga juda mehribon. To`y-u ma`rakalari qo`ni-qo`shni, qarindosh-urug`, mahalla-ko`yisiz o`tmaydi. Agar hashar bo`lib qoladigan bo`lsa, keksa nuroniyoqsoqollari duo qilib tursalar, yoshlari, navqiron yigitlar ish bilan mashg`ul bo`ladi. Ayollar ham qarab turmaydi. Biri palovxonto`rani guruchini o`ynatib yuborsa, biri non yopadi. Yana biri issiq qatlama-yu, somsalar yopib, hasharga shoshadi.

Lekin guruch kurmaksiz bo`lmaydi deganlaridek, yaxshi odamlar orasida qo`shtirnoq ichidagi baxil kimsalar ham topilib turar ekan.

Men bir oilani bilar edim. Uch og`ilni oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazishdi. Chiroyli to`ylar qilib, yaxshi niyatlar bilan kelin tushirishdi. Har bir o`g`ilga uy-joy qilib, vatan qilib berishdi. Navbat kenja o`g`ilga yetdi. Surpa qoqdi o`g`ilga mahallaning tanti, mehribon, bir kayvoni onaxonining qizini olib berishdi. Kelin saranjom-sarishta, oqila, qo`li gul pazanda edi. Qaynota-qaynona kelinlaridan juda xursand, tinmay duo qilishar, yaratganga shukrona aytishar edi. Ketma-ket beshta qiz nabirali bo`lishdi. Nabiralar shirindan shakar, buvi-yu bobosining ermaklari edi.

Nima bo`ldi-yu bu oilaga ko`z tegdi. Kenja o`g`il Usmonbek og`ir kasallikka chalindi. Ko`satsmagan doktori, boqtirmagan tabibi qolmadi. Usmonbek kundan kunga holsizlanib, dardi zo`riqib borar edi. Xotini, qizlari, ota-onasi tinmay duo qilishar, ollohimdan dardiga shifo tilashar edi. Aksiga olganday kenja qizi O`g`iloy ham tinmay chirqirab yig`lardi. Beshinch qizlariga orqasidan o`g`il ergashtirib kelsin deb O`g`iloy ismini berishgan edi. Bemor tongga yaqin uzildi. Besh qizi bilan kelin beva qoldi. Chol-kampir bu og`ir judolikni ko`tara olmay qaddilari bukildi. Oilaga ketma-ket musibatlar yo`gila boshladi. Qaynonasi Mehri xola kenjatoyining dog`ini ko`tara olmay, omonatini topshirdi. Tohir otaga bu musibat ham bormidi. Jondan aziz farzandi, bir umrlik yostiqdoshining ayrilik`i otaning qaddini bukdi. Turolmay to`shakka mixlaninb qoldi. Qiynalib voyaga yetkazgan, norg`ulday-norg`ulday o`g`illari - hammasi o`z ishi bilan band edi. Nima uchundir o`g`illar o`z otasidan xafa edilar. Keyin bilsam, ota bor merosini kenja kelinning nomiga o`tkazib bergen edi. Kelin boyaqish qizlari bilan birgalikda xasta qaynotasini ham qaray boshladi. Ovqatlantirar, yuvintirib, kiyimlarini ham o`zi almashtirardi. Ota o`g`illaridan ko`ra kelinidan mehr ko`ra boshlagan edi. Davangirday o`g`illardan hali ham darak yo`q edi. Kunlar shu zaylda o`ta boshladi. Kelin barcha qiyinchiliklarni yehgib o`tdi. Ro`zg`orni amal-taql tebratar edi. Bo`sh qoldi deguncha, hovlining bir qarich yerini ham bo`sh qoldirmay loviya, mosh, ko`k piyoz, sarimsoq piyoz ekardi. Bozorga olib chiqib` sotib kun ko`rardi.



Baxt ham egiz, musibat ham egiz deganlariday, shafqatsiz o`lim bechora otani ham olib ketdi. Kelin besh qizi bilan katta hovlida yolg`iz, huwillab qildi. Yig`ladi, siqtadi, oxiri taqdirga tan berdi.

Endi gapni aka-ukalardan eshititing. Ularning paytavalariga qurt tushdi. Chunki kenja kelinga katta uy meros qolgan edi-da. Ular kelinlarini yomon otliqqa chiqarmoqchi bo`lishdi. Hatto ba`zi odamlarga ham o`ynash qilib ko`rishdi. Lekin qo`shnilar kelinning bunday ayol emasligini isbotlab berishdi. O`g`illardan birining ichiga o`t yoqsa yorishmas, qanday qilib bo`lsa ham uyning bir qismini olish yo`llarini o`ylay boshladi. Kun ora janjal ko`tarib, oilani, qo`ni-qo`shnilarni ham tinchini buza boshlabdi. Kelin boyaqishni boshqa sabri qolmadi. Nima bo`lsa bo`lar, bir kunimni ko`rman deya, o`z qo`li bilan ekib, o`stirgan bog`ini berishga majbur bo`ldi. Oh-u nolalarini yolg`iz Ollohga to`kib soldi. Aka-ukalar xursand bo`lib, daraxtlarini kesib, o`tin qilishib, bo`sh joyni qanday qilib bo`lib olishni o`ylar edi.

Aka-ukalar o`z niyatlariga yetishdi. Taqdirni hukmini qarang-ku, bir kechaning o`zida akalardan birining sigiri nobud bo`ldi. Birining bugun-erta ko`zi yoriydigan qizining farzandi nobud bo`ldi, uyini zo`rg`a yong`indan saqlab qoldi.